

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## TARIX VA EPOS MUNOSABATI MASALASIGA BIR NAZAR

*Gavhar ESHCHANOVA*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*“Boshlang‘ich talim metodikasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

[eshchanovagavhar@gmail.com](mailto:eshchanovagavhar@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290698>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqning tarixiy o‘tmishida hech qachon unutilmaydigan mahobatli va mudhish voqealarning o‘sha xalq milliy eposida hamisha o‘z ifodasini topishi, xalq dostonlari millat tarixining yozilmagan solnomalari hisoblanishi, «Edigo» dostoni syujeti va tarixiylik masalalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** epos, tarix, xalq milliy eposi, Edigo, To‘xtamish, Oltin O‘rda, xorazmiylar, Abulg‘ozi Bahodirxon, «Edigo» dostoni, qo‘ng‘irot, qiyot, qipchoq, qangli, xitoy, jaloyir, chig‘atoy.

**Аннотация:** В данной статье никогда не забытые величественные и страшные события исторического прошлого народа всегда находят выражение в национальном эпосе этого народа, народные эпосы рассматриваются как неписаная летопись истории народа, сюжет эпоса «Эдиго» и обсуждаются вопросы историчности.

**Ключевые слова:** эпос, история, народный национальный эпос, Эдиго, Тохтамыш, Золотая Орда, Хорезмский народ, Абулгози Бахадирхан, эпос «Едиго», призыв, декламация, кипчак, канглы, китаец, джалоир, чигатой.

**Annotation:** In this article, the never-forgotten majestic and terrible events of the nation's historical past are always expressed in the national epic of that nation, folk epics are considered unwritten annals of the nation's history, the plot of the epic "Edigo" and issues of historicity are discussed.

**Key words:** epic, history, folk national epic, Edigo, Tokhtamysh, Golden Horde, Khorezms, Abulghozi Bahadirkhan, "Edigo" epic, call, recitation, Kipchak, Kangli, Chinese, jaloyir, chigatoy.

Eposning yuzaga kelishi juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning eng asosiy manbalaridan biri xalqning tarixiy o‘tmishida yuz bergan dolzarb voqealardir. Albatta, har qanday tarixiy voqea ham solnomalarga yozilavermaydi shuningdek, har qanday voqealar ham epos sifatida ro‘yobga chiqmaydi.

“Xalqda umumiy rag‘bat uyg‘otib, uning fantaziyasini junbushga keltiradigan shunday bir tarixiy lahza yuzaga keladiki, u albatta, xalq epik poeziyasida o‘zining muayyan ifodasini topadi” [Веселовский А. 1:298]. Zero, eposga asos bo‘lgan ushbu dastlabki material asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib o‘tmish voqealarining aks sadosini keyingi avlodlarga etkazadi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, “Og‘zaki epos aniq tarixiy dalillarni o‘zida juda kam saqlab qoladi. Biroq unda boshqa bir muhim imkoniyat mavjud: epos keng doiradagi ijtimoiy muhit ongida saqlanib

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qolgan voqealar mohiyatiga berilgan bahoni asrlar bo‘yi keskin o‘zgarishsiz saqlab kelishi mumkin” [Азбелев С.2:36].

Xalqning tarixiy, o‘tmishida hech qachon unutilmaydigan mahobatli, o‘z navbatida mudhish voqealar ko‘plab topiladi va ular o‘sha xalqning milliy eposida hamisha aks sado berib turadi.

Darvoqe, “Folklor tarixi uning kuylovchilari tarixining bir qismidir”. Shunday ekan, ular tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy, etnografik ma’lumotlar xalqning jonli tarixining badiiy tafakkurida qayta ishlangan ko‘rinishlaridir. Binobarin, “Epos qadimiyatning ulkan ehsoni, o‘zi yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda, jonli an’anaviy ijod va ijro sharoitlarida davrlararo xalq ruhining obyektiv holatini ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh ko‘lamlashib, goh siqiq tarzda avlodlarga etib kelgan buyuk obidadir” [Веселовский А. 3: 252].

Bunday monumental obidalar o‘zbek xalq og‘zaki ijodida juda ko‘p bo‘lib, uning bir bo‘lagini Xorazm dostonlari tashkil etadi. Xorazm vohasida ommalashgan dostonlar eposning romanik turiga mansub bo‘lsa-da, ulardaomanik xususiyatlar turlicha darajada namoyon bo‘ladi.

Xorazm dostonlari tadqiqotchisi S.Ro‘zimboev ularni bir qancha turlarga bo‘ladi. Bular “Go‘ro‘g‘li” va “Oshiq” turkumlaridir [Ro‘zimboyev S.4:72].

“Go‘ro‘g‘li” turkumi qahramonlik-romanik eposga aloqador bo‘lganligi sababli ularda tarixiy-etnografik tafsilotlar ancha kuchli. “Oshiq” turkumi dostonlarida romanik bo‘yoqdorlik juda kuchli bo‘lganligidan tarixiylik muayyan darajada xira tortgan.

So‘z yuritmoqchi bo‘lganimiz “Edigo” dostoni “Oshiq” turkumiga kiritilsa-da, o‘ziga xos xususiyatlari uni bu turkumdan ancha chetga tortadi. Negaki, “Oshiq” turkumiga kiruvchi boshqa dostonlarda tarixiy shaxs, tarixiy makon umuman, tilga olinmaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, prof. S.Ro‘zimboyev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida yuqoridagi fikriga tuzatish kiritib, “Edigo” dostonini jangnoma tarzidagi tarixiy-fantastik doston deb belgilaydi [Ro‘zimboyev S.4:19] o‘z navbatida ushbu dostonni T.MirzayevB.Sarimsoqovlar ham tarixiy-fantastik doston sifatida baholaganlar. [MirzayevT., Sarimsoqov B.5: 20].

E’tiborni tortadigan tomoni shundaki, “Edigo” dostonni muqaddimasi Xorazmda tarqalgan boshqa dostonlar muqaddimasidan keskin farq qiladi.

Darvoqe, Xorazm dostonlarining deyarli barchasida muqaddima juda qisqa bo‘lib, makon, zamon va epik qahramon haqida qisqacha ma’lumot berilib, voqea tafsiloti beriladi. “Edigo” dostonida esa muqaddima keng va batafsil berilgan:

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

*“Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, qadim zamonda Xorazm viloyatida Qo‘ng‘irot degan shaharda bir podsho bor erdikim, ziyoda ulug‘ podsho erdi. Shahri Behro, Chin-mochin, Xitoy-Xo‘tandin boj olur erdi. Ul podshoning otig‘a To‘xtamishxon der erdilar. Ko‘p ulug‘ podsho erdi. Aning uchunkim, ul podshoning ayyominda Xorazm shahrinda qirq ming uyli qo‘ng‘irot, qirq ming uyli qipchoq, qirq ming uyli mang‘it, qirq ming uyli uyshun, qirq ming uyli nayman, qirq ming uyli qozoq, qirq ming uyli qalpoq, qirq ming uyli nukus, qirq ming uyli qangli, qirq ming uyli xitoy, qirq ming uyli chandir bor erdi. Alqissa, har urug‘din bir odam podshoning xizmatinda bo‘lib, biri mehtar, biri qushbegi, biri noyib, biri shayxulislom, har kim bir amalda erdilar. Ammo amaldorlarning jamoasining ulug‘i to‘qson ikki to‘p mang‘itdin To‘limxo‘ja degan erdi” [ 6:170 -243]*

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, boshqa Xorazm dostonlarining birortasida ham urug‘lar haqida so‘z yuritilmaydi. Eng muhimi esa shuki, ushbu doston muqaddimasida keltirilgan urug‘larning aksariyati ilmiy adabiyotlarda ham qayd qilib o‘tilgan.

Xorazm etnografiyasining tadqiqotchisi G.P.Snesaryevning ko‘rsatishicha, Xorazmda o‘zbek urug‘laridan: qo‘ng‘irot, qiyot, qipchoq, qangli, xitoy, jaloyir, chig‘atoy ahli bu yerda XI asrdan; uyg‘ur, nayman, do‘rman, mang‘it, nukus, toma, masit, qulon, olchinlar XV asrdan beri istiqomat qilib kelishadi [Snesaryev G.7: 83-85].

Agarda fikr yuritayotganimiz “Edigo” dostonida qayd qilingan urug‘ nomlari bilan G.P.Snesaryev bergan ma‘lumotlar chog‘ishtirilib ko‘rilsa, ushbu dostonida tarixiylikka qanchalik e‘tibor qaratilganligi ma‘lum bo‘ladi. Dostonida urug‘larning har biridan bitta vakil podsholikning turli lavozimlarini egallaganligi ham aytib o‘tilgan. Albatta, dostonida podsho To‘xtamish nomi bilan tasvirlanadi. Biroq Xorazm tarixiga nazar solinsa, aslida o‘zbeklarni jamlab, ularning ahilligini ta‘minlab, har bir urug‘ning vakiliga lavozim bergan xon Abulg‘ozidir. U o‘zbeklarni to‘rt guruhga bo‘ladi. Har bir urug‘ni “to‘pa” deb nomlab, birinchisiga uyg‘ur va naymanlarni, ikkinchisiga qo‘ng‘irot va qiyotlarni, uchinchisiga nukus va mang‘itlarni, to‘rtinchisiga qangli va qipchoqlarni kiritdi. Ularga o‘n to‘rt urug‘ni qo‘shgan. Keyinchalik ular “O‘n to‘rt urug‘” nomini olganlar. Ulardan jaloyir va alilini qiyotlarga, kenagaslarni nukusga, xo‘ja elini mang‘itga, do‘rman, yuz ming urug‘larini uyg‘urlarga, payg‘ambar avlodlarini esa naymanlarga qo‘shadi.

Dostonida podsho sifatida To‘xtamishxon obrazi tasvirlangan bo‘lsa-da, uning faoliyati tasvirida Xorazm hududida bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar, xususan,

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Abulg‘ozi Bahodirxonning yuqorida qayd qilib o‘tganimiz ishlari o‘z badiiy ifodasini topgandek ko‘rinadi.

Bundan tashqari, dostonda makon sifatida Qo‘ng‘irot tilga olinadi. Xorazm dostonlarining boshqa birortasida ham ushbu toponim uchramaydi. Shuningdek, Xorazm dostonlarida o‘zbek, O‘zbekiston kabi etnonimlar, umuman, ko‘zga tashlanmaydi. «Edigo» dostonida esa bu atamalar bir necha o‘rinlarda tilga olinadi. Buni quyidagi misralar ham tasdiqlaydi:

*Ey bibijon, O‘zbekiston yurtidin,*

*Bizning elga ajab o‘g‘lon kelibdur... [6:243]*

Dostonda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” atamalarining qo‘llanishi, o‘zbek urug‘larining nomma-nom berilishi asarning Xorazm vohasiga o‘zbeklar kirib kelganidan keyin yaratilganligiga asos bo‘la oladi. Binobarin, Xorazmdagi o‘zbek aholisining etnik kelib chiqishi bir xil emas. Ular Shimoliy va Janubiy o‘zbeklarga bo‘linadi. Janubiy o‘zbeklar Xorazmning tub aholisi hisoblangan qadimgi xorazmiylar avlodidan bo‘lib, XVI asrda vohaga shimoldan kirib kelib, turli urug‘larga bo‘lingan Oltin O‘rda o‘zbeklari bilan aralashgan aholidir. Birgalikda kechayotgan iqtisodiy madaniy aloqalar ushbu guruhlarining bir-biriga singishib ketishiga imkoniyat yaratgan. Shimoliy hudud o‘zbeklari tub aholidan dehqonchilik madaniyatini o‘rganib, ularning XX asr boshlarigacha atalib kelingan «sart» nomining o‘rniga «o‘zbek» etnonimini olib kirdilar».[Сафонова М.8: 8]

Yuqorida keltirilgan fikrdan ma‘lum bo‘ladiki, Oltin O‘rda o‘zbeklari Xorazmga ko‘chib kelganlaridan keyin o‘zlari bilan birga tarixiy shaxslar – Edigo va To‘xtamishxonlar bilan bog‘liq epik mazmuni qayta ishlab, mahalliy tarixiy voqealarga bog‘lagan holda doston shakliga keltirgan bo‘lishlari mumkin. Negaki, Edigo va To‘xtamishxon bilan bog‘liq voqealar bilan birga Abulg‘ozi Bahodirxon faoliyati bilan bog‘liq ayrim detallar ham dostondan o‘rin olganligi alohida qayd qilib o‘tildi. Binobarin, “Edigo” dostonidagi voqealar vohaning xorazmiylarga aloqador aborigen aholisining an‘anaviy dostonlaridagi ayrim motivlarni, arxaik eposdagi ba‘zi epizodlarni o‘ziga qamrab olib o‘g‘uz eposiga xos she‘riy tuzilishiga asoslangan holda yaratilgan bo‘lsa-da, tarixiy epik mazmun asosan, o‘zbek etnonimi bilan ataluvchi aholiga tegishli bo‘lib, asar ularning xususiy eposi sifatida tan olinishi zarur.

Demak, eposning shakllanishi xalqning tarixiy o‘tmishidagi eng dolzarb voqealar ta‘sirida yuzaga kelib, juda ko‘p jarayonni o‘z boshidan kechiradi. Uning tarkibiga ko‘plab arxaik eposga tegishli motivlar kirib keladi. Davrlar o‘tishi bilan

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

uning mazmunidagi ayrim tarixiy voqealar o‘zining asl mazmuni, mohiyatini o‘zgartirishi ham mumkin. Biroq “Edigo” dostoni 1835-yilda yozuvga ko‘chirilgan. Ehtimol, doston o‘sha davrgacha ayrim o‘zgarishlarni boshdan kechirgandir. Ammo yozuvga ko‘chirilgan paytdan boshlab bizgacha o‘z asl holatini saqlab kelgan, shubhasiz.

Folklorshunos S.Ro‘zimboyevning “Edigo” dostonini jangnoma tarzida baholashi bejiz emas. Sababi, tarixiylik xususiyati jangu jadallar bilan aloqador qahramonlik dostonlarida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Albatta, “Edigo” dostonini qahramonlik eposi tarzida baholamoqchi emasmiz. Biroq uning mazmunida jang bilan bog‘liq epizodlar ham anchagina. Ma‘lumki, “Oshiq” turkumiga mansub dostonlarda bunday epizodlar deyarli uchramaydi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, ularda biz epik qahramonning ajralmas yo‘ldoshi epik ot obrazini ham ko‘rmaymiz. [Рузимбаев С.9:29].

“Edigo” dostonida epik ot bosh qahramonning eng yaqin do‘sti, hammaslagi sifatida tasvirlanadi. Shu sababli asarni jangnoma doston sifatida baholansa, uning mazmunidagi tarixiylik xususiyatini namoyish qilish ham o‘z isbotini topgandek bo‘lardi.

Professorlar T.Mirzayev va B.Sarimsoqovlar bu dostonni “afsonaviy-sarguzashtlik tomonga qarab yanada ko‘proq siljiganligini, unda ayrim tarixiy shaxslar nomidan boshqa hech narsa qolmaganligi”ni yozadilar.[Mirzayev T., Sarimsoqov B. 5: 20].

Tashqaridan qaraganda, dostonda haqiqatan ham Edigo bilan To‘xtamishxon nomlarini hisobga olmaganda, tarixiy voqealardan asar ham yo‘qday ko‘rinadi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, doston chuqurroq tahlil qilinsa, unda Xorazm o‘zbeklari tarixi bilan aloqador ayrim epizodlar ko‘zga tashlanganday bo‘ladi. Bularning ayrimlari haqida yuqorida ba’zi fikrlar qayd qilib o‘tilgan edi.

Dostondagi tarixiylik masalasiga aniqlik kiritish uchun asarning bosh qahramoni Edigo obraziga e‘tiborni qaratish zarur. Albatta, har qanday epik qahramon o‘z prototipidan keskin uzoqlashishi badiiy adabiyot, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi asarlari uchun qonuniy holdir. Ammo tarixda Edigo degan shaxs yashab, faoliyat ko‘rsatgan ekan va uning obrazi doston janri orqali ifodalangan ekan, bu hol o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Shu sababli tarixiy Edigo bilan dostondagi Edigo obrazini bir-biriga qiyos qilgan holda bu masalaga bir muncha aniqlik kiritish mumkin, albatta.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Binobarin, xalq dostonlari millat tarixining yozilmagan solnomalari bo‘lib, ular asrlar osha xalqning bebaho ma’naviy boyligi sifatida yashaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Веселовский А.Н.Из лекции по истории эпоса. (Публикация В.М.Гацака) //Типология народного эпоса. – Москва. Наука, 1975, С.298.
2. Азбелев С.Н. Историзм былин и специфика фольклора.- Ленинград. Наука, 1982, С.36.
3. Веселовский А.Н.Об историзме в изучение этнографических истоков фольклора.// Фольклори этнография.-Л .:Наука,1984,С.252
4. Ro‘zimboyev S.Xorazm dostonlari. Xorazm dostonlarining spesifikasi, tipologiyasi va poetikasi. Dokt. diss...- Toshkent. 1990, 19, 72- bet.
5. Mirzayev T., Sarimsoqov B. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti. //O‘zbek folklorining epik janrlari. - Toshkent. 1981, 20- bet.
6. Oshiqnoma, I tom, -, Urganch, 2006, I tom, 170- bet; 243 - bet.
7. Снесарев Г.П. Объяснительная записка к карте расселения узбеков на территории Хорезмской области. (конец XIX-начало XX в.) // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана.- Москва. Наука, 1975. С.83-85.
8. Сазонова М.В.Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма, - Ленинград, Наука, 1978, С.8.
9. Рузимбаев С.Идейно-эстетическая своеобразие цикла дастанов «Ашук». //Взаимовлияние и преемственность литератур. –Ташкент. изд.ТГПИ им. Низами, 1989, С.29.